



THE ROLE OF THE FAMILY IN STRENGTHENING SPIRITUAL AND MORAL VALUES AMONG YOUTH

Alimardon Urolovich Keldiyev

Independent Researcher

keldiyevalimardon@gmail.com

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Family, youth, spiritual and moral values, upbringing, socialization, national values, globalization, moral culture.

Received: 03.02.26

Accepted: 04.02.26

Published: 05.02.26

Abstract: This article examines the fundamental role of the family as a social institution in shaping and strengthening spiritual and moral values among youth. The family is analyzed as the primary space of socialization where moral norms, national values, social responsibility, and civic consciousness are formed. Special attention is given to the transformation of family upbringing under conditions of globalization and digital communication, as well as to the challenge of maintaining a balance between traditional values and the demands of modern society. The research results highlight the strategic importance of family-based education in ensuring the spiritual stability of youth and in developing the moral potential of society.

YOSHLARDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI MUSTAHKAMLASHDA OILANING O'RNI

Alimardon Urolovich Keldiyev

Mustaqil izlanuvchi

keldiyevalimardon@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Oila, yoshlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, tarbiya, ijtimoiylashuv, milliy qadriyatlar, globallashuv, axloqiy madaniyat.

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar ongida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlash jarayonida oilaning ijtimoiy institut sifatidagi fundamental o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Oila shaxs ijtimoiylashuvining birlamchi makoni

sifatida yosh avlodda axloqiy me'yorlar, milliy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik ongini shakllantirishda hal qiluvchi omil ekani asoslab beriladi. Globallashuv va raqamli kommunikatsiya sharoitida oilaviy tarbiya tizimining o'zgarishi, an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy hayot talablari o'rtasidagi muvozanat masalalari alohida tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari oilaviy tarbiyaning ma'naviy barqarorlikni ta'minlashdagi strategik ahamiyatini ochib beradi hamda yoshlar tarbiyasiga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

РОЛЬ СЕМЬИ В УКРЕПЛЕНИИ ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ У МОЛОДЁЖИ

Алимардон Уролович Келдиев

Независимый исследователь

keldiyevalimardon@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Семья, молодежь, духовно-нравственные ценности, воспитание, социализация, национальные ценности, глобализация, нравственная культура.

Аннотация: В статье рассматривается фундаментальная роль семьи как социального института в формировании и укреплении духовно-нравственных ценностей у молодежи. Семья анализируется как первичное пространство социализации личности, где закладываются моральные нормы, национальные ценности, социальная ответственность и гражданское сознание. Особое внимание уделяется трансформации семейного воспитания в условиях глобализации и цифровой коммуникации, а также проблеме сохранения баланса между традиционными ценностями и требованиями современного общества. Результаты исследования раскрывают стратегическое значение семейного воспитания в обеспечении духовной устойчивости молодежи и формировании нравственного потенциала общества.

Kirish. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish masalasi ijtimoiy-falsafiy va pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Jamiyatning barqaror rivojlanishi, fuqarolik ongining yuksalishi hamda milliy qadriyatlarning davomiyligi bevosita yoshlarning axloqiy dunyoqarashi

va ma'naviy yetukligiga bog'liqdir. Shu bois yoshlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashda asosiy tarbiyaviy institut sifatida oilaning o'rnini ilmiy jihatdan asoslash dolzarb masala sifatida namoyon bo'ladi.

Oila jamiyatning eng qadimiy va barqaror ijtimoiy instituti bo'lib, unda shaxsning ijtimoiylashuvi, axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishi hamda madaniy merosni davom ettirish jarayonlari amalga oshadi. Aynan oilaviy muhitda insonning dastlabki tasavvurlari, xulq-atvori, munosabatlar tizimi va ma'naviy qadriyatlari shakllanadi. Shu sababli oila nafaqat biologik nasl davomchiligini ta'minlovchi tizim, balki jamiyatning ma'naviy barqarorligini kafolatlovchi asosiy tarbiyaviy makon sifatida e'tirof etiladi.

So'nggi yillarda globallashuv, raqamli axborot oqimining kengayishi va madaniy transformatsiya jarayonlari yoshlarning qadriyatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Virtual kommunikatsiya muhitining kengayishi, ommaviy madaniyatning transmilliy xususiyat kasb etishi va axborot makonining ochiqqligi oilaviy tarbiya jarayonida yangi muammolar va imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda. Bu holat an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlash hamda zamonaviy hayot talablari bilan uyg'unlashtirish masalasini kun tartibiga olib chiqadi.

O'zbekiston jamiyati sharoitida oilaning ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi o'zni milliy qadriyatlar, diniy-ma'rifiy meros va zamonaviy davlat siyosati uyg'unligi asosida shakllanmoqda. "Oila – jamiyat tayanchi" tamoyili yoshlar tarbiyasida ota-ona mas'uliyati, avlodlar davomiyligi va ma'naviy vorislikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan oilaviy tarbiyani mustahkamlash masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ham egadir.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati yoshlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishni oilaviy tarbiya kontekstida tizimli tahlil qilish hamda uni zamonaviy ijtimoiy jarayonlar bilan bog'lash orqali yangi ilmiy yondashuvlarni taklif etish bilan belgilanadi. Amaliy ahamiyati esa oila institutini mustahkamlashga doir strategiyalarni ishlab chiqish hamda yoshlar tarbiyasiga oid davlat va jamoatchilik tashabbuslarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, yoshlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashda oilaning o'rnini ilmiy asosda yoritish jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlash hamda komil inson tarbiyasiga erishishning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Yoshlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlashda oilaning o'rnini o'rganish masalasi O'zbekiston ilmiy tafakkurida alohida e'tibor qaratilgan yo'nalishlardan biridir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-ma'naviy islohotlar sharoitida oila institutining tarbiyaviy salohiyatini ilmiy asoslash va rivojlantirishga doir tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Adabiyotlar

tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek olimlari tomonidan oilaning ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi o'rni asosan falsafiy, pedagogik va sotsiologik yondashuvlar asosida yoritilgan.

Ibn Sino axloqni insonning o'ziga va boshqalarga nisbatan xatti-harakatlarini tartibga soluvchi me'yor va qoidalarni o'rganuvchi muhim ijtimoiy kategoriya sifatida talqin etadi [1]. Uning fikricha, axloqiy fazilatlar shaxs kamolotining asosiy mezon bo'lib, ular jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar barqarorligini ta'minlaydi.

Kaykovus esa "Qobusnoma" asarida juvonmardlik g'oyasini ilgari surib, yoshlar tarbiyasida axloqiy tarbiyani eng ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etadi [2]. U yoshlarda adolat, samimiylilik, insonparvarlik va boshqalarga hurmat kabi fazilatlarni shakllantirish zarurligini alohida ta'kidlaydi.

Axloqiy sifatlarning mazmuni, ularning yoshlar xulq-atvorida namoyon bo'lishi hamda oilaning va ijtimoiy munosabatlarning bu jarayondagi o'rni masalasi Sharq mutafakkirlari merosida ham keng yoritilgan. Ahmad Yugnakiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa allomalar o'z asarlarida oilani shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy ijtimoiy institut sifatida talqin qilganlar [3]. Ular axloqiy qadriyatlarning shakllanishida oilaviy muhit va ijtimoiy munosabatlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslab berganlar.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ham yoshlarning axloqiy qadriyatlari, ularning shaxs ijtimoiylashuvidagi roli va oilaning tarbiyaviy funksiyasi dolzarb masala sifatida qaralmoqda [4]. Tadqiqotchilar oilani yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy omil sifatida baholaydilar.

Falsafiy tadqiqotlarda oilaning jamiyat ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy institut sifatidagi mohiyati keng tahlil etilgan. Xususan, A. Erkaev[5], M. Xudoyqulov[6], Sh. Tashpulatov[7] kabi olimlarning ishlarida milliy qadriyatlar va oilaviy tarbiya o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asoslab berilgan. Ushbu tadqiqotlarda oila ma'naviy meros uzatuvchi, avlodlar davomiyligini ta'minlovchi hamda yoshlarning axloqiy ongini shakllantiruvchi ijtimoiy makon sifatida talqin etiladi.

Pedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlarda esa oilaning tarbiyaviy funksiyalari, ota-ona mas'uliyati va farzand tarbiyasidagi zamonaviy yondashuvlar tahlil qilingan. M. Inoyatov[8], S. Nishonova[9], D. Sharipova[10] kabi olimlar oilada axloqiy tarbiya jarayonining metodik asoslarini ishlab chiqib, milliy tarbiya konsepsiyasining ilmiy asoslarini yaratgan. Ularning ishlarida oilaviy muhitning shaxs kamolotiga ta'siri empirik va nazariy asosda ochib beriladi.

Sotsiologik tadqiqotlarda oilaning yoshlar ijtimoiylashuvidagi o'rni, qadriyatlar transformatsiyasi va zamonaviy kommunikatsiya sharoitida oilaviy munosabatlarning o'zgarishi masalalari yoritilgan. Xususan, R. Jo'raev[11], Z. Qosimova[12], B. Ismoilov[13] kabi

tadqiqotchilar yoshlar orasida axloqiy qadriyatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilgan hamda oilaviy tarbiyaning ijtimoiy barqarorlikdagi ahamiyatini asoslagan.

O'zbekiston Respublikasining "Oila to'g'risida"gi qonuni, "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi konseptual hujjatlar hamda ma'naviy-ma'rifiy sohadagi davlat dasturlari oilaning tarbiyaviy vazifalarini ilmiy va huquqiy jihatdan mustahkamlashga xizmat qiluvchi asosiy normativ manbalar sifatida e'tirof etiladi. Bu hujjatlar yoshlar tarbiyasida oilaning ustuvor rolini davlat siyosati darajasida belgilab beradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda oilaning ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi o'rni keng yoritilgan bo'lsa-da, globallashuv va raqamli madaniyat sharoitida oilaviy tarbiya transformatsiyasini kompleks o'rganish masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirishga yo'naltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi tizimli va kompleks yondashuvga asoslanadi. Tadqiqotda falsafiy tahlil usuli orqali oilaning jamiyatdagi ma'naviy funksiyalari konseptual asosda yoritildi. Pedagogik tahlil oilaviy tarbiya jarayonining shakl va usullarini aniqlashga xizmat qildi. Sotsiologik yondashuv esa yoshlarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarni baholash imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotda tarixiy-mantiqiy tahlil, qiyosiy yondashuv va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Bu metodlar yordamida o'zbek oilaviy tarbiyasining an'anaviy asoslari va zamonaviy tendensiyalari o'zaro taqqoslanib, ularning uyg'un rivojlanish yo'nalishlari belgilab olindi.

Tahlil va natijalar. Yoshlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlash jarayonida oila institutining o'rni beqiyosdir. Oila nafaqat shaxsning birlamchi ijtimoiylashuv makoni sifatida, balki axloqiy me'yorlar, madaniy qadriyatlar va fuqarolik mas'uliyatini avloddan-avlodga uzatishning strategik vositasi sifatida faoliyat yuritadi. Tadqiqot davomida o'tkazilgan tahlil asosida oilaviy muhitning quyidagi asosiy funksiyalari aniqlangan: axloqiy tarbiya, ijtimoiy identifikatsiya, hissiy va madaniy qo'llab-quvvatlash, hamda jamiyatga moslashuv jarayonlarini ta'minlash.

Empirik va nazariy ma'lumotlar yoshlarning axloqiy ongiga oilaning bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Oiladagi ota-ona va bolalar o'rtasidagi muloqot, qadriyatlarni uzatish shakllari, oilaviy an'analar va odatlar yoshlarning axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyatini, ijtimoiy mas'uliyatini va jamiyatga moslashuvchanligini belgilaydi. Shu bilan birga, global axborot oqimi, raqamli kommunikatsiya va ommaviy madaniyat sharoitida oilaning tarbiyaviy funksiyalari murakkablashgan, an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy sharoitlar o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash dolzarb masalaga aylangan.

Oilaviy tarbiya shaxsning ijtimoiy va axloqiy salohiyatini shakllantirishda asosiy ijtimoiy mexanizm sifatida ishlaydi. Oila yoshlarning axloqiy me'yorlarni qabul qilishi, odob-axloq qadriyatlarini anglab yetishi, shuningdek, ijtimoiy rollarni egallash va jamiyat hayotida faol qatnashishiga turtki beradi[14]. Shu sababli oilaning tarbiyaviy salohiyatini mustahkamlash yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishning asosiy sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Integrativ tahlil natijalariga ko'ra, oilaning ma'naviy-axloqiy ta'siri shaxsning har tomonlama rivojlanishiga, milliy va umumbashariy qadriyatlar tizimini qabul qilishga, hamda jamiyat barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi[15]. Shu bois, davlat va jamoatchilik siyosati oilaviy tarbiyani qo'llab-quvvatlash, ota-onalarning tarbiyaviy kompetensiyasini oshirish hamda yoshlar ma'naviyatini shakllantirish yo'nalishlarida tizimli choralar ko'rish lozim.

Yosh avlodda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, odob-axloq me'yorlari hamda ota-onaga va katta avlod vakillariga hurmat tuyg'usini shakllantirish jamiyat barqarorligi va uzluksiz taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Shu bois oilaning tarbiyaviy hamda madaniy-ma'rifiy salohiyatini oshirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Mazkur jarayonda xalqaro tajribani tizimli ravishda o'rganish, uni milliy an'ana va qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda amaliyotga joriy etish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi bosqichda oilalar mustahkamligini ta'minlash, yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamolotida oilaning o'rni va rolini kuchaytirish borasida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro amaliyotni tahlil qilish jarayonida chet ellik mutaxassislar, pedagoglar va sotsiologlarni jalb etish, ularning ilmiy-amaliy tadqiqot natijalarini o'rganish hamda tajriba almashish mexanizmlarini rivojlantirish muhimdir[16]. Bu esa oilaning tarbiyaviy funksiyasini modernizatsiya qilish, yosh avlodning sog'lom ijtimoiylashuvini ta'minlash hamda ma'naviy immunitetini mustahkamlash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, bolalar va yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida samarali xalqaro yutuqlarni tanlab olish, ularni milliy pedagogik an'analar bilan integratsiya qilish, shuningdek, salbiy ijtimoiy oqibatlarga olib keluvchi omillarni aniqlab, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarur. Mazkur takliflarni amaliyotga joriy etish uchun tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqilishi, normativ-huquqiy va tashkiliy mexanizmlar takomillashtirilishi lozim.

Shunday qilib, oilaning tarbiyaviy va madaniy salohiyatini oshirish, xalqaro tajribani milliy kontekstda qo'llash hamda yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlash ijtimoiy taraqqiyotning strategik vazifasi sifatida kompleks yondashuvni talab etadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va mustahkamlashda oilaning o'zni markaziy ahamiyatga ega. Oila nafaqat shaxsning birlamchi ijtimoiylashuv makoni sifatida, balki axloqiy me'yorlar, milliy va madaniy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatish, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik ongini shakllantirishning strategik instituti sifatida faoliyat yuritadi.

Tahlil natijalari oilaviy tarbiyaning yoshlarning axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini, ijtimoiy identifikatsiyasini va jamiyatga moslashuvchanligini bevosita belgilashini ko'rsatdi. Shu bilan birga, globallashtirish, raqamli kommunikatsiya va madaniy transformatsiya jarayonlari oilaning tarbiyaviy funksiyalarini murakkablashtirgan va an'anaviy qadriyatlar bilan zamonaviy sharoitlarni uyg'unlashtirish zaruratini kuchaytirgan.

Ushbu tadqiqot shuni isbotladiki, oilaning tarbiyaviy salohiyati yoshlar ma'naviyatini mustahkamlash va jamiyat barqarorligini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi. Shu sababli davlat va jamoatchilik siyosati oilani qo'llab-quvvatlash, ota-onalarning tarbiyaviy kompetensiyasini oshirish va yoshlar ma'naviyatini shakllantirish yo'nalishida tizimli choralar ko'rishi lozim.

Yoshlar ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashda oilaning roli nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo'lib, uni yanada rivojlantirish va ilmiy asoslash jamiyatning barqaror va uzluksiz rivojlanishi uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Ali ibn Sino. Hikmatlar. Toshkent, "O'zbekiston", 1980.
2. Kaykovus. Kobusnoma. - Toshkent, 2010.
3. Alisher Navoiy. Mahbub-ul-Qulub. Toshkent, "O'qituvchi", 1996.
4. Ernazarov, D. (2019). Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimida yoshlarning tolerant dunyoqarashini shakllantirish masalasi. Архив научных исследований.
5. Erkaev A. Oila va jamiyat: ijtimoiy-falsafiy tahlil. – Toshkent: Fan, 2005. – 248 b.
6. Xudoyqulov M. Milliy qadriyatlar va oilaviy tarbiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2010. – 192 b.
7. Tashpulatov Sh. Ota-ona va farzand: pedagogik munosabatlar. – Toshkent: Sharq, 2008. – 210 b.
8. Inoyatov M. Yoshlar tarbiyasida oila roli. – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – 176 b.
9. Nishonova S. Axloqiy tarbiya va oilaviy qadriyatlar. – Toshkent: Fan va Ta'lim, 2015. – 204 b.
10. Sharipova D. Oila instituti va yoshlar ma'naviyati. – Toshkent: Ma'rifat, 2014. – 188 b.

11. Jo'raev R. Oila tarbiyasi va jamiyatning barqarorligi. – Toshkent: Ijtimoiy Fanlar, 2011. – 160 b.
12. Qosimova Z. Yoshlarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda oilaning ahamiyati. – Toshkent: Pedagogika, 2013. – 172 b.
13. Abdizoitovich G. Educational Problems In The Information Society //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). – 2025. – T. 6. – №. 4. – C. 5-5.
14. Usmonov F. Problems of modern computer ethics //American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. – 2022. – T. 6. – C. 26-32.
15. Ризаев И., Хаккулов Н. Синергетический взгляд на философию и общество в трудах Абу Насра аль-Фараби: ключевые принципы и современная значимость //Hikmet. – 2025. – Т. 4. – №. 6. – С. 44-59.
16. Tursunova O. Turkiston jadid namoyondasi behbudiyning yoshlar ma'naviy tarbiyasiga doir ma'rifiy g'oyalari //Journal of universal science research. – 2025. – Т. 3. – №. 6 (SPECIAL ISSUE). – С. 406-410.
17. Jalolidinovna N. U. Mutolaa-As an Important Attribute of Human Life //Kresna Social Science and Humanities Research. – 2022. – Т. 4. – С. 34-35.
18. Mardonov R. Philosophical problems of modern education //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2020. – Т. 10. – №. 12. – С. 249-255.